

**M.A. Sodiqova**

*Andijon davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, Biologiya  
yo`nalishi 1 – bosqich talabasi.*

**Annatatsiya:** Ushbu tezis Exiuridlar va Sipunkulidlar mavzusida adabiyyotlar tahlili bo`lib unda shu hayvonlarning barcha xususiyatlari, filogeniyasi, hayotiy jarayonlari haqida ma`lumotlar berilgan. Har bir adabiyyotdan olingan ma`lumotlar jamlanmasi yoritilgan.

**Аннотация:** Настоящий том содержит анализ литературы по теме эхиурид и сипункулдов в котором представлены сведения обо всем поведении, филогении и протцусах жизнедеятельности этих животных.

**Abstract:** This thesis contains an analysis of the literature on the subject of Exiurids and Sipunkulids, in which information is given about all the characteristics, phylogeny and life processes of these animals. A summary of the data from each literature is written.

**Kalit so`zlar:** Exiurid, Sipunkulid, tur, sistematika, filogenet, lichinka, xatrum, traxafora.

Exiuridlar va Sipunkulidlar dengiz tubida loyga ko`milib hayot kechiradigan chuvalchangsimon hayvonlar. Ularning sistematik o`rni haligacha aniq emas. Har ikkalaasi ham birlamchi halqalashmagan hayvonlar hisoblanadi. Exiuridlar tashqi va ichki tuzilishi sipunkulidlarga nisbatan bir muncha murakkab tuzilgan bo`lib, organlar sistemasi yaxshi rivojlangan. Har ikkisi ham ayrim jinsli bo`lib lichinkalik bosqichlari mavjud. Lichunkasi traxafora deb ataladi. Ularning kattaligi bir necha santimetrlar hisoblanadi.



Sipunkulidlar (lot. Sipuncula - trubadan) – dengiz protostomlari, chuvalchangsimon hayvonlarning bir turi[2]

Sipunkulidlarning 144 – 320 turi, Rossiyada 36 turi mavjud[3]. Ular sayoz suvlarda, tuproqda, tosh yoriqlarida, qurtlarning norkalarida, molluskalarining bo`sh qobiqlarida va shunga o`xshash joylarda yashaydilar. Ular deyarli barcha dengizda

uchraydi, ko`proq yoki kamroq tuzsizlangan suvi bo`lgan ba`zi ichki dengizlardan tashqari(Qora va Boltiq dengizlarida emas). Barens va Uzoq Sharq dengizlarida ko`p uchraydi. Tanasi keng, segmentsiz, uzunligi 1dan 50 sm gacha, eng yirik vakili *Siphonomecus multicinctus* ning uzunligi 51 smga yetadi. Tanasining uchida paypastlagichlar bilan o`raglan og`iz teshigi, ingichkalashgan xartumga, undan kegin birmunc ha keng gavda qismiga bo`linadi. Teri – muskul xaltasi yaxshi rivojlangan. Qon aylanish sistemasi bo`lmaydi[1,221-b]. Ayrish organi-1-2 juftmetnefridiy[2].

Sipunkulidlar qumga ko`milganligi sababli, ularning uzun, halqaga o`xshash ichaklari tananing yuqori uchdan bir qismida, yon tomondan anus bilan ochiladi. Bu ularga zaharli metabolitik mahsulotlarni tashqi muhitga erkin chiqarib tashlash imkonini beradi[4].

Sipunkulidlar tipi bitta sipunkulidlar sinfidan iborat. Bitta turi yog'ochni parmalab yashaydi[6].

Exiuridlarning sistematik o'rni ma'lum emas[1,218-b]. Dengiz tubida yashovchi qurtlar bo`lib, annelida bilan bog'liq filogenetik pozitsiyani egallaydi. Ular asosan oziqlantiruvchi organ bo`lgan ptostomial proboscis bilan tavsiflanadi va u substratga qo'llaniladigon dorsal sirtning siliyer harakati bilan dengiz tubida harakatlanadi[4].

1 sinfga mansub 150ga yaqin turi ma'lum[1,218-b].

Tanasi uzunligi 3 sm dan 185 sm gacha.Ularning tanasi bir qavat epiteliy bilan qoplangan bo`lib,u tana sirtiga kutikula ishlab chiqaradi.Epiteliy ostida 2 qator muskullar bor.Selom bo'shlig'ini peritoneal epiteliy qoplab turadi[1,219-b].



Hazim qilish sistemasi oldingi, o'rta va keying qismlarga bo'lingan uzun egri bugri kanallardan iborat. Qoni rangsiz, leykotsitlari mavjud. Qon aylanish sistemasi tananing orqa tomonidan o'tadigon qon tomiridan iborat.Ayrish sistemasi uch xil ko'rinishga ega[1,219-b].

Nerv sistemasi kuchsiz rivojlangan. Markaziy nerv sistemasi qorin nerv stvoli va halqumatrofi nerv halqasidan iborat.Exiuridlalar ayrim jinsli. Gonadlari toq, tanasini keyingi qismining qorin tomonida joylashgan. Lichinkasi troxofora[1,220-b].

**XULOSA**

Bu ikkala sinf yoki ayrim adabiyotlarda alohida tip deb ham yuritiladigan hayvonlar dengiz prostomlari hisoblanadi. Exiuridlarning ham sipunkulidlarning ham sistematik o`rni , ya`ni filogenezi ma'lum emas. Organlar sistemasi, tashqi va ichki tuzulishi o`xshash bo`lib, ayrim belgilari bilan nisbatan bir biridan farq qiladi. Ayrish sistemasida sipunkulidlar kabi exiuridlarda ham nefromiksiyalar mavjud, lekin lichinkalik davrida bir juft protonefridiylardan iborat. Har ikkala sinf ham dengiz chuvalchangsimon hayvonlarning bir turidir.

**ADABIYOTLAR:**

1. O.Mavlonov. SH. Xurramov. X.Eshonova. “Umurtqasizlar zoologiyasi”. Toshkent 2006.
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sipuncula>
3. Higher taxa of animals; data on the number of species for Russia and the whole world Archival copy of November 1, ra at the way back Machine.
4. <https://en.m.wikipedia.org/wiki/Sipuncula>
5. <https://ucmp.berkeley.edu/sipuncula/sipuncula.html>
6. Arxiv.uz